

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MUSIQA ORQALI ESTETIK TARBIYA BERISH

Turdiboyeva Moxlaroy Adashbek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqa orqali estetik tarbiya berishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilgan. Musiqa inson qalbini tarbiyalaydigan, estetik didini shakllantiradigan kuchli vosita sifatida o'rganiladi. Maqolada musiqa darslarida qo'llaniladigan uslub va metodlar, milliy va jahon musiqasining o'quvchilarga estetik ta'siri, shuningdek, musiqa orqali bolalarda go'zallikni anglash, his qilish, ifoda etish qobiliyatining rivojlanishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik mahorati va darsdagi interaktiv yondashuvlarning estetik tarbiya samaradorligiga ta'siri ham ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *estetik tarbiya, musiqa darsi, boshlang'ich ta'lim, musiqiy madaniyat, go'zallik, bolalar ijodi, pedagogik metod.*

AESTHETIC EDUCATION OF PRIMARY STUDENTS THROUGH MUSIC

Turdiboyeva Mokhlaroy

Student of Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: *This article analyzes the theoretical and practical aspects of aesthetic education of primary school students through music. Music is studied as a powerful tool that educates the human soul and forms aesthetic taste. The article considers the methods and techniques used in music lessons, the aesthetic impact of national and world music on students, as well as the development of children's ability to perceive, feel, and express beauty through music. The impact of teachers' pedagogical skills and interactive approaches in the lesson on the effectiveness of aesthetic education is also considered.*

Keywords: *aesthetic education, music lesson, primary education, musical culture, beauty, children's creativity, pedagogical method.*

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКИ

Турдибоева Мохларой

Студент Наманганского государственного

педагогического института

Аннотация: *В статье анализируются теоретические и практические аспекты эстетического воспитания учащихся начальной школы посредством музыки. Музыка изучается как мощный инструмент, воспитывающий душу человека и формирующий эстетический вкус. В статье рассматриваются стили и методы, используемые на уроках музыки, эстетическое воздействие отечественной и мировой музыки на учащихся, а также развитие у детей способности воспринимать, чувствовать и выражать прекрасное через музыку. Также рассматривается влияние педагогического мастерства учителя и интерактивных подходов в классе на эффективность эстетического воспитания.*

Ключевые слова: *эстетическое воспитание, урок музыки, начальное образование, музыкальная культура, красота, детское творчество, педагогический метод.*

Musiqa o'qituvchisi-bu o'ziga xos badiiy ijodiy kasb sohibi si fatida, o'zining musiqiy-ijrochilik va pedagogik mahoratiga ega bo'lishi bilan birga o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun musiqiy faoliyatlarni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish hamda pedagogik boshqara olishi kerak. Zero, o'quvchilarning musiqiy ta'lim darajasi o'qituvchining pedagogik malaka sifatiga, mahoratiga kasbiy kompetentligiga bog'liq bo'ladi. Musiqa o'qituvchisi nafaqat pedagog iste'dod va

qobiliyat ga ega bo'lishi, balki shuningdek pedagogik g'oya, nazariyalar, ta'lim metodlari, texnologiyalari bo'yicha tegishli daraja hamda hajmda bilim sohibi bo'lishi kerak. Bu esa kasb mutaxassisi to monidan nazariya bilan amaliyotni uzviy bog'liq holda o'zlashti rilishi natijasida erishiladi. Zamonaviy pedagogik ta'lim tizimining maqsadi o'qituvchi ning uzluksiz umumiy va kasbiy kamolotini ta'minlashdan ibo rat, chunki umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa madaniyati fani o'qituvchisi oldiga, uning kasb malakasiga hamda shaxsiy sifat, insoniy fazilatlariga nisbatan yuksak talablar qo'yilmoqda. O'qituvchini tayyorlash oliy o'quv yurtidagi butun ta'lim-tar biya ishlarining majmui vositasi bilan amalga oshiriladi. O'quv-tarbiya jarayoni va darsdan tashqari ish – uning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Muntazam ilmiy-ijodiy yondashuv bo'lajak mutaxassislarda o'qituvchi kasbi uchun zaruriy bilim, malaka, mahorat ko'nikmalarni hamda shaxsiy xislatlarni rivoj lantirish uchun oliy ta'limning barcha imkoniyatlaridan foydal anishni ta'minlaydi. Shu vazifani muvaffaqiyatli hal etishini ta'miylandigan vo sitalar orasida musiqa – pedagogikasi sohasi uchun kasbiy ma horat asoslarini tarkib toptirish katta ahamiyatga egadir. Zero, bu vosita bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlash tizimining tarkibiy qismidir.

Bunda nazariy bilim, tayyorgarlik ularning bilim doira sini kengaytirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratilishi, bo'la jak musiqa o'qituvchisining shaxsini shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Talabalarda pedagogik mehnat ko'nikma lari, mahoratini, bu faoliyatga ijodiy yondashish kayfiyatini uyg'otishga, o'zining ruhiy holatini boshqara olish, boshqa in sonning ruhiy tabiatini tushunish va anglash, o'zaro samim iy muloqot o'rnata olish kabi qobiliyatlarni rivoj lantirishga ko'maklashadi. Ayniqsa, bo'lajak musiqa o'qituv chilarining kasbiy mahoratini oshirish, ularda pedagoglik sifatlarini rivo jlantirish – oliy ta'limning musiqa-pedagogika yo'na lishi oldi da turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Mohir pedagoglar ma'ruza, seminar, munozara, konferensiya, o'quv amaliyotiga, talabalar ishtirokida mustaqil dars, ko'rik-konkurs kabi dars turlaridan foydalanishga alohida e'tibor beradilar. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun'i da qayd qilinishicha, "Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan

olinadi. Pedagog-xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tash kiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi. Qonun talablaridan kelib chiqib, bugungi kunda musiqiy-pedagogik faoliyatning ijtimoiy hodisa sifatidagi maqsadini quy idagilarda namoyon bo'lishini kuzatish mumkin:

- talabalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, uzluksiz bilim berishni ta'minlash;

- ijtimoiy – iqtisodiy hayot qonuniyatlaridan kelib chiqib talabalarni fanlarning ilmiy-nazariy asoslarini puxta egallashga yo'naltirish;

- har bir talaba-yoshning o'ziga xosligi, individualligini inobatga olib ularni faol ijtimoiy – madaniy, musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash;

- o'qitish va tarbiyalash jarayonida talabalarning mustaqilligi, tashabbuskorligi, erkin fikr yuritishni to'la yo'lga qo'yish; -o'qitishda ta'lim va tarbiyaning birligi va uzviy bog'liqligini ta'minlagan holda talabalarda ilmiy dunyoqarash, milliy mafkurasi asoslarni tarbiyalash;

- har bir mashg'ulot, dars mazmunida vatanparvarlik, inson parvarlik, milliy o'zlikni anglash ruhini singdirish;-talaba-yoshlarning ilmiy-uslubiy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollanganligini nazorat qilish, baholash hamda tahlil qilish;

- har bir mashg'ulotda musiqiy kasbiy ta'limda fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish, talabalarning barcha fanlarga bo'lgan qiziqishi, intilishi hamda ehtiyojini tarbiyalash;

- har bir darsda ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, mavzularning mantiqan o'zaro bog'liqligi, ilmiy-amaliy yo'nalishini kuchaytirishga erishish va hokazo.

Estetik tarbiya — bolalarda go‘zallikni sezish, tushunish, baholash va undan zavqlanish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu jarayonni boshlang‘ich ta‘lim bosqichida shakllantirish nihoyatda muhim, chunki bu yoshda bolaning qalbi ochiq, sezgirligi kuchli va ta’sirchan bo‘ladi. Musiqqa esa inson hissiyotlarini uyg‘otuvchi, ruhiy dunyosini boyituvchi eng kuchli san’at vositalaridan biridir. Shu sababli boshlang‘ich sinfda musiqa darslari orqali estetik tarbiyani samarali tashkil etish o‘qituvchining muhim vazifalaridan biridir.

Musiqqa orqali beriladigan estetik tarbiya deganda, o‘quvchining musiqani eshitish, tushunish, his qilish, uni ifoda etish va ijod qilish orqali go‘zallikni anglashga o‘rganishi tushuniladi. Bu jarayonda quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi:

- musiqani diqqat bilan eshitish;
- kuy va qo‘shiqlar mazmunini anglash;
- musiqiy obrazlarni his qilish;
- musiqani ifoda qilish (kuylash, harakat, mimika orqali);
- milliy va jahon musiqasiga estetik munosabat bildirish.

Boshlang‘ich sinfda musiqa darslarining o‘rni

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tuzilgan musiqa darslari dasturi bolalarning musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, didini o‘stirish, milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi. Qo‘shiqlar kuylash, ritmik mashqlar bajarish, milliy cholg‘u asboblari bilan tanishish, musiqiy o‘yinlar o‘ynash orqali bolalarda musiqiy madaniyatga nisbatan muhabbat uyg‘onadi.

Musiqqa orqali estetik tarbiyada qo‘llaniladigan metodlar

O‘qituvchi quyidagi metodlardan samarali foydalanishi lozim:

- **Didaktik o‘yinlar:** musiqiy tahmin qilish, ritmik qarsaklar, ovozlar orqali hayvon yoki tabiat manzarasini tasvirlash.

- **Eshitish va tahlil qilish:** bolalarga turli janrdagi musiqlarni tinglatib, ularning kayfiyati, ohangi, ritmi haqida fikr bildirishga o'rgatish.

- **Ijodiy topshiriqlar:** “Agar bu kuy bir rang bo'lsa, qanday rang bo'lardi?”, “Sen shu musiqani tinglaganingda nimani tasavvur qilding?” kabi savollar orqali musiqiy tasavvurni rivojlantirish.

- **Vokal mashqlar:** nafaqat musiqa ko'nikmasini, balki tovush tarbiyasini ham shakllantiradi.

- **Vizual-tasviriy vositalar:** musiqa asariga mos rasmlar, slaydlar, video lavhalar orqali musiqaning mazmunini boyitish.

Bugungi ta'lim tizimida estetik tarbiya masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga estetik tarbiya berish ularning shaxsiyati shakllanishi, didi, his-tuyg'ulari va ma'naviy dunyosini boyitishda muhim o'rin tutadi. Musiqa san'ati esa bu borada eng ta'sirchan vositalardan biridir. Musiqa orqali bolalarda go'zallikni anglash, tinglash madaniyati, badiiy tafakkur va estetik did shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali hayotni to'liq anglab yetmagan, hissiyotga boy, nozik qalbli bo'ladi. Musiqa darslari orqali ularning ijobiy fazilatlarini kuchaytirish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish, mustaqil fikrlash va o'zini ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, xalq qo'shiqlari, bolalar uchun mo'ljallangan kuy va ashulalar orqali ularning milliy o'ziga xoslik va madaniyatga bo'lgan hurmati ortadi. O'quvchilarda musiqa orqali estetik tarbiya shakllantirishda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi: o'qituvchining professional darajasi va mahorati, musiqa materiallarining yoshga mosligi, darsda zamonaviy metodlardan foydalanish va interaktiv yondashuvlar. Shuningdek, musiqa darslarida teatr elementlari, obrazli tasvirlar, ritmik harakatlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish orqali bolalarning estetik qiziqishini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, musiqa orqali estetik tarbiya berish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nafaqat bilim olish, balki hayotga, atrof-muhitga va o'ziga nisbatan

ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bu esa ularning barkamol shaxs sifatida voyaga yetishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Musiqa darslari faqat ko'ngilochar mashg'ulot bo'lib qolmasdan, balki har tomonlama tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vositaga aylanishi zarur. Shu sababli, ta'lim muassasalarida musiqa fanini takomillashtirish, metodikasini boyitish, pedagog kadrlar malakasini oshirish orqali ushbu yo'nalishdagi ishlarni samarali tashkil etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent. 2020yil. 23-sentabr. O'RQ-637-son.
2. Mamirov K. Vospitanie нравственных чувств младших Школьников в процессе обучения музыке. Dis. na sois. kand. ped. nauk. (13.00.01.) T.,1986.
3. Matonis V. Muzikalno-esteticheskoe vospitanie lichnosti. -L.: Muzika, 1988.
4. Metodika преподавания музикальных дисциплин: Sb. statey. -T.: O'qituvchi. 1989.
5. Muzikalnaya psixologiya: Uchebnoe posobie. / avtor sost. Kadirov R.G., -T.: Muzika, 2005.
6. Muzikalnoe vospitanie v shkoie. Vip.19.: Sb. statey. / Sostav. O.Apraksina. M.: Muzika, 1987
7. Oripova R. O'smirlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirish (maktabdan tashqari muassasalardagi musiqiy to'garaklar misolida). T., 2007.
8. Alaev Yu. Puti formirovaniya navikov mnogogolosnogo peniya • v detskom xore //Muzikalnoe vospitanie v shkoie, vip. 10, M., 1985.